

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARINING KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH DIDAKTIK TA'MINOT SIFATIDA

Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich,

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi, t.f.n., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholash jarayonini samarali tashkil etishda didaktik ta'minotning o'rni yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash mezonlari, baholash vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda raqamli platformalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, baholashning shaffofligi, obyektivligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiluvchi didaktik vositalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetensiya, didaktik ta'minot, pedagogik texnologiya, kredit-modul tizimi, raqamli texnologiya, ilmiy fikr, fan, modul, baholash mezon, indikator, darslik, o'quv qo'llanma.

ОЦЕНКА КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ КАК ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ

Шойкулов Бахтиёр Бакирович,

независимый научный сотрудник Института развития профессионального образования, к.т.н., доцент

Аннотация. В данной статье освещается роль дидактической поддержки в эффективной организации процесса оценки профессиональных компетенций учащихся организаций профессионального образования. На основе компетентностного подхода анализируются вопросы критериев оценки, инструментов оценки, современных педагогических технологий и использования цифровых платформ. Также разработаны рекомендации по дидактическим инструментам, которые служат для обеспечения прозрачности, объективности и надежности оценки.

Ключевые слова: Профессиональная компетенция, дидактическая поддержка, педагогические технологии, кредитно-модульная система, цифровые технологии, научное мышление, наука, модуль, критерий оценки, индикатор, учебник, учебное пособие.

ASSESSING STUDENT COMPETENCIES IN VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A DIDACTIC SUPPORT

Bakhtiyor Bakirovich Shoykulov,

Independent Research Fellow, Institute for Professional Education Development, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor

Abstract. This article highlights the role of didactic support in effectively organizing the professional competency assessment process for students in vocational education institutions. Using a competency-based approach, we analyze assessment criteria, assessment tools, modern pedagogical technologies, and the use of digital platforms. Recommendations for didactic tools that ensure the transparency, objectivity, and reliability of assessments are also developed.

Keywords: Professional competency, didactic support, pedagogical technologies, credit-module system, digital technologies, scientific thinking, science, module, assessment criterion, indicator, textbook, teaching aid.

Kirish. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashning didaktik ta'minoti zamonaviy ta'lim jarayoni samaradorligini belgilovchi muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Chunki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va ularni xolis baholash faqatgina o'quv reja yoki nazorat ishlari bilan emas, balki puxta ishlab chiqilgan metodik vositalar, didaktik materiallar, baholash texnologiyalari va ta'lim muhiti orqali ta'minlanadi. Shu jihatdan mazkur masala ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni baholashning zamonaviy kredit-modul tizimi asosida ularning kasbiy kompetensiyasiga qo'yilayotgan talablarning asosida didaktik ta'lim texnologiyalari muhim o'rin tutadi.

Didaktik ta'minot kasbiy ta'lim o'quv jarayonining barcha bosqichlarida baholashni rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va natijalarni tahlil qilish imkonini beruvchi metodik, axborot va tashkiliy vositalar majmuasini o'z ichiga oladi. Mazkur ta'minot baholashning obyektivligi va shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiyalarni baholash o'quvchining kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorligini aniqlash jarayonidir. Kompetensiyaviy baholash quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

- nazariy bilimlarni aniqlash;
- amaliy ko'nikmalarni baholash;
- kasbiy faoliyatni rejalashtirish qobiliyati;
- kommunikativ kompetensiyalar;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari;
- mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish.

An'anaviy baholash tizimi asosan bilimlarni nazorat qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, kompetensiyaviy baholash o'quvchining real ishlab chiqarish sharoitlarida kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Didaktika nazariyasining shakllanishi XVII–XIX asrlarda yashab ijod etgan bir qator buyuk pedagog olimlar asos solgan tamoyillar muhim ahamiyatga ega. An'anaviy didaktik nazariya asosan Y.A.Komenskiy va J.F.Gerbart kabi olimlarning ilmiy ishlari asosida shakllangan bo'lib, unda o'qituvchi – “ta'lim berishning markaziy shaxsi, o'quvchilar esa tayyor bilimlarni qabul qiluvchi passiv tinglovchi sifatida tasvirlanadi. Bunday yondashuv tayyor bilimlarni o'quvchilarga uzatish tamoyiliga asoslanib, o'qituvchi faol subyekt, o'quvchi esa faoliyatni aks ettiruvchi obyekt rolida edi. Komenskiy va Gerbartning didaktik qarashlari an'anaviy ta'lim paradigmasiga poydevor qo'ygan holda, keyingi pedagogik izlanishlar uchun zamin yaratdi” [1].

Yan Amos Komenskiyning “Didactica Magna” (“Buyuk didaktika”) asari didaktika fanining ilk fundamental asarlaridan bo'lib, “hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati” tamoyilini ilgari surgan. Komenskiy ta'lim jarayonini tabiatga muvofiq tashkil etish g'oyasini ilgari surdi: o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich va izchil ta'lim berish lozim.

Iogann Gerbart nemis pedagogi va faylasufi – didaktikani nazariy jihatdan boyitib, uni ilmiy yo'sinda izchil tushuntirib berdi. Gerbartning fikricha, ta'lim jarayoni tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lishi zarur, ya'ni har qanday o'qitish axloqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilishi lozim.

Konstantin Ushinskiy [2] pedagogika nazariyasiga salmoqli hissa qo'shgan. Ushinskiy ta'limni ona tilida berish, xalq og'zaki ijodi materiallaridan foydalanish tarafdori edi, bu esa o'quvchilarning bilimlarni qabul qilishiga yengillik yaratadi. U Komenskiy boshlab bergan “tabiatga muvofiq tarbiya” g'oyalarini davom ettirdi va pedagogika rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Johann Genrix Pestalozzi [3] ham didaktikaga katta hissa qo'shgan. Pestalozzi o'quvchilarni "aqli, qalbi va qo'li"ni (ya'ni, aqlan, axloqan va jismonan) uyg'un rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqqan.

Nemis pedagogi Wolfgang Klafki [4] "tanqidiy-konstruktiv didaktika" nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. Klafki didaktikada "kategorial ta'lim" konsepsiyasini ishlab chiqdi: ya'ni, ta'lim mazmuni o'quvchi uchun ikki tomonlama "ochilish" (kategoriyalashuv) ahamiyatiga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlangan.

Lev Vygotskiy aniq didaktik nazariya yaratmagan bo'lsa-da, ammo uning pedagogik psixologiyaga oid g'oyalari zamonaviy didaktikaning rivojiga kuchli ta'sir o'tkaza olgan. Vygotskiyning mashhur "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchi ma'lum bir topshiriqni katta inson yordami bilan bajara olsa, demak tez orada uni mustaqil ham bajara oladi. Aynan mana shu tamoyilni L.V.Zankov o'z didaktik tizimida asos qilib oldi [5].

Leonid Zankov [6] pedagog, Vygotskiy izdoshi va "rivojlantiruvchi ta'lim" (razvivaushchee obuchenie) tizimini ishlab chiqqan olim. Zankovning didaktikasi an'anaviy qarashlardan farqli ravishda o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ko'radi va o'quvchining potensialini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarga asoslanadi: yuqori darajada o'qitish tamoyili, nazariy bilimlarning yetakchi roli tamoyili, o'quv dasturining tezkor o'zlashtirilishi tamoyili, o'quvchilarning o'z o'quv jarayoni haqida xabardorligi tamoyili, har bir o'quvchini tizimli va maqsadli rivojlantirish tamoyili ishlab chiqilgan.

Zankov tizimi bo'yicha olib borilgan ko'plab eksperimentlar shuni ko'rsatdiki, mazkur tamoyillarga amal qilish o'quvchilarning umumiy rivojlanish sur'atini oshiradi, darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Bunda o'qituvchiga yuqori pedagogik mahorat talab etilsa-da, natijada o'quvchilar fikrlashi, ijodkorligi va mustaqil ishlash ko'nikmalari sezilarli rivoj topadi.

Pyotr Galperin [7] psixolog bo'lib, didaktikaga bevosita oid bo'lmasa ham, uning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi ta'lim metodikasida inqilobiy ahamiyat kasb etdi. Galperinning nazariyasiga ko'ra, o'quvchilarda yangi tushuncha yoki harakat ko'nikmasini hosil qilish uchun uni bir necha bosqichlarda o'rgatish lozim: avval motivatsiya va yo'nalish beriladi, so'ng moddiy (ko'rgazmali) harakat bajariladi, keyin u nutqiy (tashqi nutq yordamida) bajariladi, so'ngra ichki nutq darajasiga (pichirlashga) o'tiladi va oxirida harakat to'liq ichki aqliy amalga aylanadi. Bu usul hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarida "bosqichma-bosqich o'qitish" nomi bilan mashhur.

Hozirgi paytda uslubiy-didaktik ta'minot kasbiy ta'lim uchun ham o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar asosida yaratilib kelinmoqda.

U.Musayevning fikricha, uslubiy-didaktik ta'minotni ishlab chiqishda Davlat ta'lim standarti talablariga va o'quv dasturining hajmiga mos keladigan o'quv yuklamasi modeliga, taqdim etilayotgan o'quv materiallarining ta'limiy-tarbiyaviy qiymatini ta'minlash parametrlariga e'tibor qaratish va o'quvchilarni yangi bilim va axborotlar bilan qurollantirishning didaktik va texnologik asoslariga tayangan holda yondashish maqsadga muvofiqdir [8].

A.Abdusamatov va boshqalar "Organik kimyodan mashq, masala va testlar (2003-yil)" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqishgan va akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim jarayonida foydalanib kelinmoqda. Mazkur o'quv qo'llanmada organik kimyo bo'yicha namunaviy masalalar yechish metodikasi, mashqlar va testlar yetarlicha keltirib o'tilgan [9].

M.M.Abdulxayeva, O'.M.Mardonovlar hammuallifligida ishlab chiqilgan "Kimyo" darsligi (2002-yil) akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu darslikda kimyoga doir jadvallar, tasviriy materiallar, mustaqil ishlar, savol-javoblarga keng o'rin ajratilgan [10].

D.J.Tursunova, F.J.Tursunovalar hammuallifligida nashr qilingan “Kimyodan dasturlashtirilgan masala va mashqlar to‘plami” nomli o‘quv qo‘llanmada (2004-yil) ko‘proq intellektual o‘yinlarga ahamiyat berilgan bo‘lib, kasb-hunar ta‘limi o‘quvchilarining organik kimyodan bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlashtirilgan metodika qo‘llanilgan [11].

S.Masharipov, I.Tirkashev tomonidan nashrga tayyorlangan “Kimyo” darsligida (2006-yil) kasb-hunar ta‘limida o‘qitiladigan tabiiy fanlar integratsiyasi ta‘minlangan [12].

Muhokama. Yuqorida keltirib o‘tilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha tizimli ishlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Bir qator olimlar sifatli uslubiy-didaktik ta‘minot yaratish uchun quyidagi mezonlarga asoslanishi lozimligini e‘tirof etadilar [13]:

1. Matnda ifoda etilgan fikrlar tushunarli bo‘lishi, mantiqan bog‘langan, hamda mazmunni ochib berishga turli tasvir va chizmalardan samarali foydalanish imkoniyatining mavjud bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Uslubiy-didaktik ta‘minot matni ta‘lim oluvchilarning yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlari hisobga olinib, ilmiy jihatdan asoslangan fikrlarni o‘z ichiga olishi kerak.

3. Uslubiy-didaktik ta‘minot tarkibiy tuzilmasi, ya‘ni band va boblar izchil berilishi lozim.

4. Uslubiy-didaktik ta‘minot ta‘lim oluvchilarning mavjud ehtiyojlarini qondirishi va o‘ziga xos bo‘lishi zarur.

5. Uslubiy-didaktik ta‘minot davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlari talablariga muvofiq yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

6. Uslubiy-didaktik ta‘minot matnining grammatik, orfografik va fonetik talablariga mos yozilishini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Mualliflar tomonidan sifatli elektron-didaktik ta‘minot yaratishda quyidagi asosiy talablarga amal qilish lozimligi keltiriladi [10]:

- ilmiy fikr rivojlanishining asosiy yo‘nalishi va natijalariga, uning zamonaviy holatiga mos kelishi;

- fanga oid majburiy bilimlar yig‘indisini belgilab beruvchi ta‘lim standartlari talablariga mos kelishi;

- ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarni mustahkamlash, mustaqil ishlashni rag‘batlantirishi;

- mavzularning aniq belgilanishi, zarur ma‘lumot apparati va adabiyotlar;

- uslubiy-didaktik ta‘minot hech qanday qiyinchiliksiz o‘qituvchining ilmiy va pedagogik kosepsiyasiga kiritilishi hamda o‘quv jarayoni grafigi va ishchi rejasi bilan mos keluvchi vosita bo‘lishi lozim;

- uslubiy-didaktik ta‘minot mavjud o‘quv jarayonini tashkil etish tizimi va istiqbolni qoniqtirishi lozim.

“Uslubiy-didaktik ta‘minot yaratish konsepsiyasi”ga [14] muvofiq, barcha o‘quv adabiyotlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Davlat ta‘lim standartlari asosida tayyorlanishi: ta‘lim standartlari va davlat talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

- Hamkorlik pedagogikasi va interfaol uslublarni tadbiq qilish: Ta‘lim-tarbiya jarayonida hamkorlik va interfaol uslublarni qo‘llab-quvvatlashi zarur.

- Nazariy va amaliy rivojlanish: tegishli o‘quv fanining nazariy va amaliy rivojlanishida intellektual merosning ahamiyatini ko‘rsatishi kerak.

- Intellektual insonparvarlik g‘oyalari: insonning tabiat va ijtimoiy hayotdagi mas‘uliyatligini aks ettirishi zarur.

- Vatanparvarlik va milliy g‘urur: mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishi, vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirishi kerak.

- Ma'naviy-axloqiy sifatlar: ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlashi, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishi kerak.
 - Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish: qiziqish uyg'otadigan, mustaqil fikrlashga yo'naltiradigan xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.
 - Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: mustaqil ta'lim olishga qiziqishni oshirishi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishi zarur.
 - Yuqori darajada umumlashtirilgan ilmiy bilimlar: zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan va yuqori darajada umumlashtirilgan ma'lumotlar taqdim etilishi kerak.
 - Illyustratsiyalarga boy bo'lishi: ko'rgazmali tasvirlar va badiiy-uslubiy jihatlarni o'z ichiga olishi, amaliy faoliyatga yo'naltirilishi zarur.
 - O'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlari: yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.
 - Bilimlarning mutlaqligi va nisbiyligini yorqin ifodalash: bilimlarni mutlaqlik va nisbiylik darajasida aniq ifodalashi kerak.
 - Bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish: bilimlarni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.
 - Ta'lim va tarbiyani ijtimoiy hayot bilan bog'lash: ta'lim va tarbiyani ijtimoiy hayot va unumli mehnat bilan bog'lanishiga e'tibor berilishi lozim.
 - Fan va texnika yutuqlarining ahamiyatini ifodalash: fan va texnika yutuqlarini, ilmiy masalalarning mantiqiy ketma-ketligini ifodalashi kerak.
 - Yaxlitlikni idrok qilish hissi: ma'lumotlarni mantiqiy tizimda taqdim etishi, matnni jozibali shaklda bayon etishi zarur.
 - Aniq va ravshan yozilish: asosiy tushuncha va xulosalarni aniq, ravshan yozilishi, atamalarning umumiylikiga erishilishi kerak.
- Kasbiy ta'limdagi uslubiy-didaktik ta'minotga quyidagi talablar qo'yiladi:
- Fanning o'quv dasturidagi mavzular to'la yoritilishi: o'quv dasturidagi barcha mavzular to'liq va chuqur yoritilishi kerak.
 - Fanlararo bog'liqlikning ta'minlanishi: fanlararo bog'liqlikni ta'minlash va bilimlarni bayon etishda muammoli yondashish usulini qo'llash zarur.
 - Oddiy va tushunarli tilda bayon etilishi: mavzularni oddiy va sodda tilda, tushunarli va ravon bayon etilishi, talabalarda bilim olishga intilish hissi va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishi kerak.
 - O'quv adabiyotining dizayni tegishli o'quv fani mazmuniga mos bo'lishi lozim.
 - Uzviylikning ta'minlanishi: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi turidagi bilimlar orasidagi uzviylikni ta'minlash zarur.
 - O'quv adabiyotining hajmi: o'quv adabiyotining hajmi muayyan fanning o'quv dasturi va talabalarining o'zlashtirish darajasidan kelib chiqib belgilanishi kerak.
 - Muqobil variantlarda yaratilishi: o'quv adabiyoti muqobil variantlarda yaratilishi va chop etilishi lozim. Yuqoridagi barcha talablar qondirilib yaratilgan uslubiy-didaktik ta'minot o'quv materiali bosma shaklda va elektron tashuvchida taqdim etilishi talabalarining mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.
- Natija. Ushbu talablar inobatga olinib uslubiy-didaktik ta'minot ishlab chiqilganda fan dasturi mazmuniga muvofiqlashtirish asosida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniga ega bo'lamiz. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan kasbiy ta'limning 40720306 – "Neft va gazni qayta ishlash" hamda 50710101 – "Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)" kasb

va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun "Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi" va "Kimyo sanoati xomashyolari va mahsulotlari" nomli o'quv qo'llanmalar va ularning mobil ilovalarini ishlab chiqdik va ta'lim jarayoniga joriy qildik.

Kimyo va neft-gaz sanoati zamonaviy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, u milliy energiya xavfsizligini ta'minlashda, sanoat tarmoqlarini yoqilg'i va xomashyo bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, neft va gaz kondensatini chuqur va samarali qayta ishlash texnologiyalari jahon miqyosida yuqori darajadagi innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Mazkur o'quv qo'llanmalar "Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi" hamda "Kimyo sanoati xomashyolari va mahsulotlari" fanlarining asosiy mazmuni, nazariy asoslari, amaliy hisoblash usullari hamda zamonaviy texnologik jarayonlarini qamrab oladi.

Fan(modul)lar bo'yicha bilimlar o'quvchilarga neft va gaz xomashyolarini dastlabki tayyorlash, ularni fizik-kimyoviy xususiyatlariga qarab fraksiyalarga ajratish, yoqilg'i, moylar va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichlaridagi texnologik usullarni hamda kimyo sanoati xomashyolari va mahsulotlarini tushunishga imkon beradi. Bunda atmosfera va vakuum sharoitida haydash, termik va katalitik kreking, gidrogenlash, adsorbsiya, rektifikatsiya, suvsizlantirish va tuzsizlantirish kabi muhim jarayonlar chuqur o'rganiladi. Shuningdek, tabiiy gazni qayta ishlash, tozalash, suyultirish va undan turli foydali mahsulotlar sintetik yoqilg'i, vodorod, oltingugurt olish texnologiyalari ham alohida yoritiladi.

"Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi" hamda "Kimyo sanoati xomashyolari va mahsulotlari" fanlarini o'rganayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan qo'llanmalar, amaliy mashg'ulotlarda qo'llanilishi, mustaqil ta'limda foydalanilishi muhim nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Qo'llanmalardagi mavzular bosqichma-bosqich va tizimli ravishda yoritilgan bo'lib, har bir bo'lim zamonaviy texnologik yondashuvlar, sanoatdagi amaliyot va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, fan doirasida muhim hisob-kitoblar, qurilmalar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar, mahsulotlar sifati va ekologik xavfsizlik masalalariga ham e'tibor qaratilgan.

Mazkur qo'llanmalar o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki zamonaviy kimyo va neft-gaz sanoatining texnologik muammolarini tahlil qilish, ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ko'mak beradi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashning uslubiy-didaktik ta'minoti ta'lim sifati va baholash samaradorligini belgilaydigan strategik omildir. U puxta ishlab chiqilgan metodik hujjatlar, aniq mezonlar, amaliy vazifalar, raqamli texnologiyalar va pedagog kadrlar salohiyatiga tayangandagina yuqori natija beradi.

Xulosa. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kompetensiyalarini baholashning didaktik ta'minotini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Baholash mezonlari, indikatorlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini kompleks baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комений Ян Амос. Великая дидактика. – Москва : Педагогика, 1982. – 656 с.
2. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. Москва: Педагогика, 2002.
3. Pestalozzi J.H. Leonard and Gertrude. Oxford: Oxford University Press, 2010.
4. Klafki W. Neue Studien zur Bildungstheorie und Didaktik: Zeitgemäße Allgemeinbildung und kritisch-konstruktive Didaktik. Weinheim: Beltz Verlag, 2007.

5. Verbitskiy A.A. Контекстное обучение: теория и практика. – Москва : Высшая школа, 1991. – 207 с.
6. Занков Л.В. Дидактика и жизнь. Москва: Просвещение, 2001.
7. Гальперин П.Я. Введение в психологию. Москва: Московский университет, 2004.
8. Musayeva N.N. Modulli ta'lim jarayonida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish : ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2012. – 167 b.
9. Abdusamatov A., va boshqalar. Organik kimyodan mashq, masala va testlar : o'quv qo'llanma. – Toshkent : O'qituvchi, 2003. – 192 b.
10. Abdulxayeva M.M., Mardonov O'.M. Kimyo : akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent : O'qituvchi, 2002. – 256 b.
11. Raximov G'.R. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash metodikasi : ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2021. – 170 b.
12. Masharipov S., Tirkashev I. Kimyo : kasbiy ta'lim tashkilotlari uchun darslik. – Toshkent : O'qituvchi, 2006. – 240 b. Abdunazarova N.F. Kattalar ta'limida o'quv jarayonini loyihalash : ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2013. – 166 b.
13. Muslimov N.A. Kredit-modul tizimida kasbiy kompetensiyalarni baholash va diagnostika qilish : ped. fan. dokt. ... dis. – Toshkent, 2021. – 301 b.
14. Anorqulova G.M. Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish : ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2011. – 169 b.